

NUTQ USLUBLARINI FARQLASHGA OID USULLAR.NUTQ USLUBLARINI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Ko'palova Mahfuza
Urganch davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Nutq uslublari ma'lum bir vaziyatda foydalanadigan nutq shakllari yig'indisidir. O'zbek tilida nutq uslublari 5ta. Bular :

1. So'zlashuv uslubi.
2. Rasmiy uslub.
3. Ilmiy uslub.
4. Badiiy uslub.
5. Publitsistik uslub.

Shulardan birinchisi So'zlashuv uslubi bu uslubning boshqa nutq uslublari bilan farqi, uning adabiy va oddiy shakli bor. Ular ham o'z ichida turli guruhlarga bo'linadi.

A) adabiy so'zlashuv uslubi

B) oddiy so'zlashuv uslubi

Adabiy so'zlashuv uslubi O'zbekistonning barcha hududlarida umumiy tushuniladigan uslub. Oddiy so'zlashuv uslubi oddiy xalq tili, turli hududlarida aholi o'zlarining shevalarda, lahjalarda ishlatadi. Har kuni ishlatadigan uslubimiz barchamizning. Bu uslub sodda boshqa uslublarda qaraganda. Yana bu uslubda turli xil ismlarni qisqartirib aytsa ham bo'ladi. Abror-Abbi. Zuhra-Zavra tarzda ham tovush almashinishlari uchrashi mumkin.

Rasmiy so'zlashuv uslubi 2xil ko'rinishi berilgan. Bular og'zaki va yozma ko'rinishlar boshqa nutq uslublari bilan farqi. Bu uslubning farqi ko'proq rasmiy doiralarda yig'ilishlar, majlislarda, xalqaro tashkilotlar bilan uchrashuvda ishlatiladigan uslub. Ish qog'ozlaridan turli ariza, ma'lumotnomalar yozishda foydalaniladigan uslub.

Ilmiy uslub ko'proq adabiy til qoidalariga amal qiladi. Bu uslubning farqi ko'proq ilmiylikka asoslanadi. Ilmiy uslubni fan uslubi ham deyish mumkin. Barcha ko'pgina fanlar shu uslubda foydalanadi. Maktab darsliklari shu uslubda yoziladi. Barcha ilmiy ishlar shu uslubda beriladi. Olimlarning doktorlik va nomzodlik ishlari shu uslubga xoslangan.

Badiiy uslubning qo'llanish doirasi kengligi bilan ajralib turadi. U barcha uslublardan kengroq ma'lumotlar zahirasi ega. Bu uslub erkin uslubdir. Yozuvchi va shoirlar tafakkuridagi barcha narsalarni o'z ichiga oladi. Adiblarimiz bu uslubda hohlaganicha yozishlar o'y fikrlarini erkin tarzda o'quvchi kitobxonlarga yetkazib berishi bilan ajralib turadi.

Publitsistik uslub (Matbuotchilar uslubi) Bu uslub qadimda ham qo'llanilgan. Gazeta va jurnallar shu uslubda beriladi. Televideniye va radio ham shu uslubda foydalaniladi. Bu uslubning ham imkoniyatlari keng. Bu usul tez, tanqidchi, zamonga mos tarzda borayotgan uslub.

Nutq uslublari o'qitish orqali o'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish mumkin. Bu uslublar orqali har bir o'quvchiga shu uslubni o'rganishi, so'ng shu uslubni

o‘z hayotida amal qilishi kerakligini tushunadi.

Nutq uslublarini o‘qitish orqali muloqot madaniyatini yanada yaxshi o‘zlashtirishi uni har bir joyda ishlatilishi o‘rganadi. Muloqot madaniyati orqali atrofdagilar bilan munosabatga kirishganda har bir so‘zni o‘z o‘rnida ishlatilishini o‘rganadi. Ko‘chada, uyda, ishxonada, jamoat joylarida insonlar bilan qanday so‘zlashishni o‘qitishdan biladi. Har bir nutq uslubidan bir narsa o‘rgansa ham ularni umumlashtirsa yaxlit bir tizimga kelgan nutq uslubi kelib chiqadi. Shuning uchun ham nutq uslublarini yoshlikdan o‘quvchilarga o‘rgatib borish maqsadga muvofiqdir. Har bir inson uchun juda kerakli bo‘lgan ma‘lumot beriladi.

Nutq madaniyatini o‘tqandan o‘quvchi to‘g‘ri so‘zlaydi, har qaysi so‘zni o‘z o‘rnida va keraklisini topib so‘zlaydigan bo‘ladi. Nutq uslublarini o‘qitish orqali o‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish uchun yurtimizda juda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Masalan hozirgi kundagi darsliklarni olib qaraydigan bo‘lsak holding darsliklardagidek qoidalarga emas ko‘proq inson hayoti davomida kerak bo‘ladigan narsalar kiritilyapti. Shulardan biri muloqot madaniyatini shakllantirish bo‘yicha mavzular va ulardagi mashqlarni ko‘rishimiz mumkin. Faqat ona tili darslarida emas adabiyot darslarida ham o‘quvchilarda muloqot madaniyati shakllantirish bo‘yicha turli mavzular berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu barcha qilinib turgan ishlar o‘quvchilarga kelgusi hayotida ularga yordam ko‘rsatishi uchun o‘rgatiladi.